



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MASALALARI VA UNING DOLZARBLIGI

Azimova Maloxat Xoldarovna

Namangan viloyati Pop tumani Maktab maktabgacha
ta'lim bo'limiga qarashli 7-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumtalim maktablarining 9-11 sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va ularning qiziqishlari orqali zamonaviy kasblarni egallashlari uchun kreativ go'yalar mazmuni keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: kreativ, kasb, texnologiya, korxona, tashkilot, zamonaviy, kasbiy ta'lim, kompetensiya, qobiliyatlar, motivatsiya.

Аннотация: В статье представлено содержание творческих идей профориентации учащихся 9-11 классов общеобразовательных школ и освоения ими современных профессий по интересам.

Ключевые слова: креатив, профессия, технология, предприятие, организация, современный, компетентность.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs etib tarbiyalash bugungi kunning talabi. Kasbga va kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini respublikamiz ta'lim islohotlari talabi darajasida yo'lga qo'yish, respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda bu borada to'plagan ilg'or tajribalarni tadqiq qilib, ijodiy tatbiq qilish davr taqozosi hisoblanadi.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil



ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zazor. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali, o'quvchilarni texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligiga bevosita jalb etish orqali amalga oshirishdir. Yoshlarimiz o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun qator zarur sifatlarga ega bo'lishi kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy bilimlarni egallashga ichki motivatsiyani shakllantirish;
- kasb tanlash jarayonida yuqori natijalarga erishishga intilish;
- kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va mazmunini tushunish.

O'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish usullaridan biri bu ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadi kichik mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va malakalarini oshirishdan iborat bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb va kasb-hunarga yo'llashga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh, ruhiy individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ular texnologiya fani va kasbga yo'naltirishda o'simliklarni parvarish qilish, hunarmandchilik jihozlari bilan tanishtirish va ishlov berishda mexnat ko'nikma va malakalari shakllantirilib borildi.

Shuningdek, ularning qiziqish va moyilliklariga ko'ra o'zini-o'zi kasbiy jihatdan aniqlash, kasb-hunar turlarini tanlashi, hunarmadchilik sohalari va ularda



ishlatiladigan asbob - uskuna, yangi tenika, ilg'or texnologiyalarni o'rganib borishlari hamda mehnat faoliyatida ishtirok etishlari ta'minlandi.

Ayrim kasblarning nufuzliligi uchun ota-onaning maslahati, do'stiga ergashib yoki tanlagan kasbidan moddiy manfaatni ko'zlab o'quvchilar kasb tanlamoqdalar. Ba'zi ota-onalar kasb obro'sini abadiy va o'zgarmas deb hisoblaydilar. Lekin odamlarning qiziqishi xamisha doimiy bo'lavermaydi. O'tmishga nazar soladigan bo'lsak bunga osongina ishonch xosil qilish mumkin. Masalan, shunday vaqtlar bo'lganki, artist, ichki ishlar xodimi, tadbirkor, haydovchi kabi kasblarga talab uncha kuchli bo'lmagan. Vaqt o'tgan sari kasblarga bo'lgan talab ham o'zgarib ba'zilarining obro'si birmuncha pasayib borishini inobatga olish lozim. Ota-onalar ko'pincha bir xil xatoga yo'l qo'yadilar. Bolalarni mehnatdan ozod qiladilar, ularning kasbiy layoqati, qobiliyat va qiziqishi haqida tushunchalar bilan qiziqmaydilar va ular katta bo'lganda, xaqiqiy mehnatga, kasbiy yo'nalganligini aniqlashga ehtiyoj tug'ilganda, kasbiy layoqat, mehnatsevarlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi deb ishonadilar. Lekin kasbiy moyillik va qiziqishlarini anglamaslik, psixologik tashxis hulosalarini nazar-pisand qilmaslik, ishyoqmaslik, farzandlar o'sib katta bo'lganda o'zini albatta ko'rsatadi. Ayrim kasb-hunarlariga o'quvchilarning qiziqishi past bo'lib, xududdagi kasblarga bo'lgan extiyojdan kelib chiqqan xolda kasblarga qiziqishni orttirish kerak. Jamiyatda barcha kasb-hunarlar kerak, biroq qaysidir kasblarga talab ko'proq, qaysidir kasbga extiyoj kamroq bo'ladi. U yoki bu kasb-hunarni tanlash jarayonida uning jamiyatdagi mavqeyini bilish muhimdir. Buning uchun shu kasb bo'yicha mehnat faoliyatining mazmuni, istiqboli, kasbga o'zining mosligi, shu yunalishda o'qish imkoniyatlari va kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglab olish darkor.

Ko'rinib turibdiki, jamiyatimizga yangi kirib kelayotgan va milliy hunarmandchilik kasblariga o'quvchilarni qiziqishi past. Mazkur kasblarga o'quvchilar qiziqishini orttirish uchun «Uzluksiz kasb-hunarga yunaltirish dasturiga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan kasb-hunarga yunaltirish mashg'ulotlarida sinfda, maktabdan tashqari tadbirlarda, individual suhbatlar orqali



sinf rahbarlari, amaliyotchi psixologlari, kasb-hunarga yo'naltiruvchi fan o'qituvchilari, tibbiy xodim, qolaversa, butun jamoa o'quvchilarga kasbiy axborot va kasbiy maslahatlarni berishlari, kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etishlari, tashkilot, korxonalar va xususiy tadbirkorlarning ishlari bilan yaqindan tanishish maqsadida sayohatlar uyushtirishlari tavsiya etiladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini boshlang'ich sinfdan boshlab olib borish o'quvchining kelajakda to'g'ri kasb tanlashga, hayotda va mehnat faoliyatida o'z o'rnini to'g'ri yordam beradi. Boshlang'ich sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda avvalo shu davrga xos bo'lgan xususiyatlari inobatga olinsa mashg'ulotlar samarali bo'ladi. Bola boshlang'ich sinfga kelar ekan, ma'lum muddat o'yin uning yetakchi faoliyatiga aylanadi, o'yin orqali bolaning qo'l harakatlari va tafakkur operatsiyalari yanada takomillashadi. Shuning uchun birinchi sinflarda kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari o'yin tarzida tashkil etilishi lozim.

O'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish - bu uning mutaxassis sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi maqsadga yo'naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rashidov X va boshqalar "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2007-yil.



2. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
3. Abduquddusov O. A, Rashidov x. f. "Kasb-hunar pedagogikasi" Toshkent-2009-yil
4. E.G'oziev.Umumiy psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y.
5. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998
6. N.Xo'jaev va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007.